



RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLAR IQTISODIYOTIDA TASHQI SAVDONING AHAMIYATI

Matqurbonova Aziza Davronbek qizi

Guliston davlat universiteti. Ijtimoiy – iqtisodiyot fakulteti

Iqtisodiyot yo'nalishi 2 – bosqich talabasi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7912230>

ARTICLE INFO

Received: 30th April 2023

Accepted: 08th May 2023

Online: 09th May 2023

KEY WORDS

Eksport, Import, foyda, tovar, Eksportyorlar, Importyorlar, nomonetar, monetary, tashqi savdo aylanmasi.

ABSTRACT

Ushbu maqolada rivojlanayotgan mamlakatlarning tashqi savdo siyosati haqida, xususan O'zbekiston tashqi savdosi, uni mamlakat iqtisodiy rivojlanishi yo'lidagi ahamiyati to'g'risida to'xtalib o'tilgan. Tashqi savdo mamlakatlararo aloqa qilishning eng oson va qulay usuli hisoblanadi. Bunda mamlakatlar ikki tomonlama ham foyda ko'rishlari mumkin, ya'nikim ham iqtisodiy tarafdin ham bir – biri bilan almashuv jarayonida davlatlararo aloqa yuzaga keladi. Bu esa ularga bir – biridan muntazam xabardor bo'lib turish imkonini beradi.

Tashqi savdo bu mamlakatlararo oldi – sotdi munosabatlari olib boriladigan jarayon hisoblanadi. Eksport va Import yig'indisi mamlakatning Tashqi savdo aylanmasini keltirib chiqaradi. Davlatlar o'rtasida savdo – sotiqni rivojlantirishni 2 tomonlama foyda olish imkonini yaratadi. Tashqi savdo bu mamlakatni o'zaro bir – biri bilan aloqa qilishini eng oddiy sodda shaklidir. Insoniyat tarixida ilk bora sharq va g'arb dunyosini bir – biriga bog'lagan “Buyuk ipak yo'li”¹ edi. Bu yo'l hozirgi O'zbekiston hududidan ham o'tgan bo'lib, bu hududda savdo – sotiqni rivojlanishiga zamin yaratib bergan.

Tashqi savdo asosan suv yo'llari ochilgandan keyin, ya'ni Buyuk geografik kashfiyotlardan keyin rivojlandi. Bu turdagi savdo yo'li bugungi kunda ham eng arzon va eng qulay savdo yo'li hisoblanadi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarning jadallikda o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatimizning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkoniyat yaratib beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega deb hisoblaniladi.

Respublikada bu borada so'ngi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdoda muvozanat holatni taminlash maqsadida amalga oshirilgan chora - tadbirlar natijasida, 2023 – yil yanvar oyida

¹ Ushbu karvon yo'li g'arb bilan sharqni bog'lagan eng birinchi yo'l tarmog'i bo'lib miloddan avvalgi 2 – asrda, milodiy 15 – asrda paydo bo'lgan.



respublikamizning tashqi savdo aylanmasi 5,0 mlrd AQSH dollariga yetdi va 2022 – yilning yanvar oyiga nisbatan 1,5 mlrd.AQSH dollariga yoki 42.0 % ga ko'payganligi aytilgan.

2023 – yil yanvar oyida Eksport hajmi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasi 2082,8 mln AQSH dollarini tashkil etgan. Ya'ni bu degani o'tgan yilgiga nisbatan 45,1 % o'sganini anglatadi. 2022 – yil O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasi 1435,0 mln AQSH dollarini tashkil etgan. Bunda har bir tur tovarga alohida ko'rsatkich mos keladi ya'nikim, tovarlarga 627,5 AQSH dollari; Xizmatlarga 273,3 AQSH dollari miqdorida; nomonetar tovarlarga esa 1181,0 AQSH dollari hisobida to'g'ri keladi.²

2023 – yil yanvar oyida Import hajmi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasi 2959,7 mln AQSH dollarini tashkil etadi. Bu esa o'tgan yilgiga nisbatan 45,1 % o'sganini bildiradi. 2022 – yilda O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasi 2116,6 mln AQSH dollarini tashkil etgan. Bunda Import tovarlar hissasi 2810,1 mln AQSH dollarini tashkil etgan; xizmatlar hissasi 149,6 mln AQSH dollarini tashkil etgan;

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN MAMLAKATLAR

(2023 – yil yanvar, mln.AQSH dollari)

ROSSIYA	XXR	Germaniya	Qozog'iston	Turkiya
Tashqi savdo aylanmasi – 688,4 Eksport: 218,8 Import: 469,6 Umumiy: 13,7 %	Tashqi savdo aylanmasi: 544,0 Eksport: 83,1 Import: 461,0 Umumiy: 10,8%	Tashqi savdo aylanmasi 496,6 Eksport: 5,8 Import: 490,8 Umumiy: 9,8%	Tashqi savdo aylanmasi: 333,5 Eksport: 56,6 Import: 276,8 Umumiy: 6,6%	Tashqi savdo aylanmasi: 261,7 Eksport: 108,2 Import: 153,5 Umumiy: 5,2%
Koreya Respublikasi Tashqi savdo aylanmasi: 143,6 Eksport: 2,2 Import: 141,4 Umumiy: 2,8 %	Litva Tashqi savdo aylanmasi: 109,8 Eksport: Import: Umumiy: 2,2 %	Fransiya Tashqi savdo aylanmasi: 105,2 Eksport: 31,7 Import: 73,5 Umumiy: 2,1 %	Singapur Tashqi savdo aylanmasi: 74,0 Eksport: 11,6 Import: 62,4 Umumiy: 1,5 %	Braziliya Tashqi savdo aylanmasi: 70,3 Eksport: 0,1 Import: 70,2 Umumiy: 1,4 %

Tashqi savdo aylanmasi bu – ma'lum muddat uchun mamlakat eksporti va Importi qiymati yig'indisi hisoblanadi. Tovarlarning tashqi savdo statistikasi O'zbekiston Respublikasi bo'xona hududiga olib kirish ya'ni Import qilish yoki O'zbekiston Respublikasi bo'xona hududidan olib chiqib ketish ya'ni eksportning natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo'shiladigan yoki ulardan ayirib olib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi yordamida yuritiladi.

Mamlakatimiz jahonning 134 davlati bilan savdo aloqalari amalga oshirib kelmoqda. Tashqi savdo aylanmasining nisbatan salmoqli hissasi Rossiyada 13,7 %, XXR da 10,8 %, Germaniyada 9,8 %, Qozog'istonda 6,6 %, Turkiyada 5,2 %, Koreya Respublikasida 2,8% va Litvada 2,2 % ko'rsatkichlar keltirilgan.

² Mamlakatning tashqi savdoda eksport hajmi qanchalik ko'p o'ssa kompaniya uchun foydali hisoblanadi



O'zbekiston boshqa xorijiy davlatlar bilan Tashqi savdo aylanmasini 2023 – yilning yanvar oyida 2022 – yilning mos davriga nisbatan 5,9 % ga ko'paytirdi va jami Tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 73,0 % ni tashkil qildi.

Xulosa o'rnida aytish joizki, mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishida barcha iqtisodiy harakatlar muhim hisoblanadi, shu jumladan, tashqi savdo. Tashqi savdoda oldi sotdi qilish orqali davlat valyutaga ega bo'ladi, qolaversa agar chetga sifatli mahsulot chiqarsa o'zini iste'molchisi va o'zini bozori bo'ladi. Ammo bu oson emas. Chunki barcha uchun birdek mahsulot ishlab chiqarish, ustiga – ustak u oliy sifatli bo'lishi kerak.

Tashqi savdo faqat iqtisodiy jihatdan emas, balki madaniy va ma'naviy jihatdan ham mamlakatlarni o'zaro bo'g'laydi. Chunki, misol uchun bizga biron – bir davlatdan ma'lum turdagi mahsulot kirib kelsa u bilan birga bizga o'sha davlat madaniyati ham kirib keladi.

Tashqi savdoni yuqoriligi mamlakatni iqtisodiy baquvvatligi ham ko'rsatib beradi. Agar mamlakatda tashqi savdo yuqori bo'lsa, ishlab chiqarish, qayta ishlash ham yaxshi yo'lga qo'yilganligini bilishimiz mumkin. Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida boshqa bir natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab – quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomeklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksportyorlar soni 2359 taga yetganligi ma'lum bo'ldi va ular tomonidan 900,8 mln. AQSH dollari miqdoridagi tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi. Bu esa 2022 – yil mos davriga nisbatan 6,2 % ga ko'p.

O'zbekistonning tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirish jarayonida – tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqish jarayonida esa tovarlar yuborilgan mamlakat hisoblanadi.

References:

1. "Debt in Times of crisis" written by Thomas Poufinas
2. "Public debt and the common Good" written by James Odom
3. "United Nations conference on trade and development" on 4 September 2019 Digital economy report 2019. Value creation and capture: implications for developing countries
4. Makroiqtisodiyot, N.M. Shaxmurodov
5. S.S.Gulyamov. Raqamli iqtisodiyotda blokchain texnologiyalari.
6. R.H.Ayupov, G.R.Boltaboyeva. "Raqamli iqtisodiyot: muammolar va yechimlar" maqolasi. Toshkent moliya instituti
7. "Moliya va bank ishi" electron – ilmiy jurnali. O'zbekiston innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish muammolari va yechimlari. – T: "Iqtisod – moliya" nashriyoti, 2015 – yil
8. www.ziyonet.uz, <http://blokchain.community>
9. <http://review.uz/uz/post/raqamli> - iqtisodiyot - mamlakatimiz – taraqqiyoti – garovidir.